

**O‘zbekiston Respublikasi  
Sog‘liqni saqlash vazirligi**

***5510400 – Stomatologiya*  
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari**

**Toshkent**

## **SO‘Z BOSHI**

### **1. ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Respublika tibbiy ta’limni rivojlantirish markazi;
- Toshkent Davlat stomatologiya instituti.

### **2. TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligining 2018 yil «2» oktyabrdagi 564- sonli buyrug‘i.

### **3. JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi.

Mazkur malaka talabni O‘zbekiston Respublikasi xududida rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilib O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
<b>1. 5510400 – Stomatologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi .....</b>	<b>4</b>
1.1. Qo‘llanish sohasi.....	4
1.2. <b>5510400 – Stomatologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi .....</b>	<b>4</b>
<b>2. 5510400 – Stomatologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar .....</b>	<b>6</b>
2.1. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar .....	6
2.2. <b>5510400 – Stomatologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo‘yiladigan malaka talablari .....</b>	<b>7</b>
<b>3. 5510400 –Stomatologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar .....</b>	<b>8</b>
3.1. O‘quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar .....	8
3.2. <b>5510400 – Stomatologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi yuklama hajmi .....</b>	<b>16</b>

## **1. 5510400 – Stomatologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi**

**5510400 – Stomatologiya** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchiloliy ta’limning o‘quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini to‘liq o‘zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan shaxsga «bakalavr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma’lumot to‘g‘risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

O‘quv reja va fan dasturining me‘yoriy muddati va mos malaka(daraja)si 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

### **O‘quv reja va fan dasturining muddati va bitiruvchilarning malaka(daraja)si**

<b>O‘quv reja va fan dasturining nomi</b>	<b>Malaka (daraja)</b>	<b>O‘quv reja va fan dasturini o‘zlashtirishning me‘yoriy muddati</b>
Bakalavriatning o‘quv reja va fan dasturi	Bakalavr	5 yil

#### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

**1.1.1.** Oliy ta’limning ushbu malaka talabi **5510400 – Stomatologiya** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrlar tayyorlash o‘quv reja va fan dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2.** Oliy ta’lim muassasasi mazkur bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo‘lganda malaka talab asosida o‘quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

**1.1.3.** Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas’ul oliy ta’lim muassasalarining professor - o‘qituvchilari;

– ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

– o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);

– bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

– oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

– oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

– ta’lim yo‘nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo‘lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

**1.2. 5510400 – Stomatologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi**

**1.2.1.5510400 – Stomatologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**5510400 – Stomatologiya** bakalavriat ta’lim yo‘nalishi - ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari davlat va nodavlat korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, davlat boshqaruv organlarida, sog‘liqni saqlash tizimining muassasalarida stomatologiyani rivojlantirish, stomatologik kasalliklarni tashhislash va davolashning zamonaviy usullaridan keng foydalangan holda bemorlarning tibbiy muammolari bo‘yicha asosiy vazifalarni hal qilish, stomatologik yordam va dispanser kuzatuv faoliyatining usullari va uslublarining sifatini,

o'shinish (davolash-profilaktik, tibbiy-ijtimoiy) bo'yicha kompleks masalalarni yechish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va ilmiy-tadqiqot markazlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishni o'z ichiga oladi.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

### **1.2.2. 5510400 – Stomatologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

– sog'liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, sog'liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislari, ilmiy-tadqiqot ishlari, me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar;

– tibbiyot asbob-uskunalar, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

– jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy-stomatologik yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

– ilmiy-tadqiqot jarayoni.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

### **5510400 – Stomatologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:**

– *sog'liqni saqlashni birlamchi tizimida tibbiy faoliyatni tashkil etish;*

– *aholi orasida keng uchraydigan stomatologik kasalliklar bo'yicha barcha turdagi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbir etish;*

– *aholiga kasalxonagacha bo'lgan shoshilinch stomatologik yordamni ko'rsatish;*

– *tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan kasalliklar hamda muammolar bo'yicha zamonaviy ma'lumot, bilimlarga ega bo'lish va faoliyati davomida ular to'g'risidagi ma'lumotlar bilan muntazam tanishib borish;*

– *aholi orasida keng tarqalgan kasalliklar bo'yicha zamonaviy tashxislash va davolash standartlarini maqsadga yo'naltirilgan holda amaliyotda qo'llash;*

– *aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, shuningdek, stomatologik madaniyat, sanitar-gigienik tarbiya, ratsional ovqatlanish, zararli odatlar bilan kurashish, o'smirlarni sog'lomlashtirish, ona va bola salomatligini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;*

– *surunkali stomatologik kasalliklarni erta aniqlash maqsadida profilaktik va maqsadli tibbiy ko'rik o'tkazish, aholining umumiy dispanserizatsiyasini amalga oshirish;*

– *ijtimoiy holatga bog'liq kasalliklarga qarshi kurashishning davolash-profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish;*

– *tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan muammolar bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini talab darajasida olib borishda ishtirok etish;*

– *tasdiqlangan shakldagi hisobot hujjatlarini sifatli va o'z vaqtida to'ldirish;*

– *tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan muammolar bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini talab darajasida olib borishda ishtirok etish.*

### **1.2.3. 5510400 – Stomatologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *tibbiy-profilaktik;*
- *tezkor va shoshilinch tibbiy yordam;*
- *tashxislash va davolash;*
- *reabilitatsiya;*

- *tibbiy-ijtimoiy;*
- *tashkiliy- boshkaruv;*
- *ilmiy-tadqiqot.*

*Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.*

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta‘lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta‘lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

#### **1.2.4. Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy moslashuv imkoniyatlari:**

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan so‘ng o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarida maxsus fanlarni o‘qitishi mumkin.

#### **1.2.5. Ta‘limni davom ettirish imkoniyatlari:**

**5510400 – Stomatologiya** ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kasbiy tayyorgarlikdan keyin:

- 5A510401 – *Terapevtik stomatologiya;*
- 5A510401 – *Ortopedik stomatologiya;*
- 5A510401 – *Jarrohlik stomatologiya;*
- 5A510401 – *Yuz - jag‘ jarrohligi;*
- 5A510401 – *Bolalar stomatologiya;*
- 5A510401 – *Bolalar terapevtik stomatologiyasi* mutaxassisliklari bo‘yicha magistratura va klinik ordinatura sifatida ikki yildan kam bo‘lmagan muddatda o‘qishni davom ettirishi mumkin.

Shuningdek, o‘rnatilgan tartibda mustaqil tadqiqotchilik sifatida ilmiy tadqiqot olib borish mumkin.

## **2. 5510400 – Stomatologiya ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar**

### **2.1. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar:**

- dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- Vatan tarixini bilishi, ma‘naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma‘naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sogʻlom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati toʻgʻrisida ilmiy tassavvur hamda eʼtiqodga, oʻzini jismoniy chiniqtirish oʻquv va koʻnikmalariga ega boʻlishi lozim.

**Bakalavr:**

- taʼlim yoʻnalishlari boʻyicha oliy maʼlumotli shaxslar egallashi lozim boʻlgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;

- tegishli bakalavriat yoʻnalishlari doirasida tanlangan mutaxassislik boʻyicha magistraturada oliy taʼlimni davom ettirishga;

- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qoʻshimcha kasb taʼlimi olish uchun tayyorlanadilar.

**2.2. 5510400 – Stomatologiya taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qoʻyiladigan malaka talablari**

**Tibbiy-profilaktik faoliyatida:**

- aholi orasida sogʻlom turmush tarzini targʻibot qilish;

- sogʻliqni saqlash tizimining birlamchi boʻgʻinida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

- aholi orasida keng tarqalgan stomatologik kasalliklarning oldini olish boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- tibbiy-profilaktika faoliyatida ilgʻor, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish *qobiliyatlariga ega boʻlishi kerak.*

**Tezkor va shoshilinch tibbiy yordam faoliyatida:**

- shoshilinch holatlarni oʻz vaktida aniqlash;

- kasalxonagacha boʻlgan tez tibbiy yordamni koʻrsatish;

- koʻrsatmaga koʻra kasalxonaga yuborish *qobiliyatlariga ega boʻlishi kerak.*

**Tashxislash va davolash faoliyatida:**

- aholi orasida **stomatologik** kasalliklarni erta tashxislash;

- umumiy amaliyot **stomatologiya** faoliyatida zamonaviy tashxislash usullaridan foydalanish;

- keng tarqalgan **stomatologik** kasalliklarni zamonaviy usullardan foydalangan holda toʻgʻri davolash;

- bemorlarni koʻrsatmaga koʻra tor mutaxassislar bilan birgalikda olib borish va davolash;

- oʻz faoliyatida dalillarga asoslangan tibbiyot standartlaridan foydalanish *qobiliyatlariga ega boʻlishi kerak.*

**Reabilitatsiya faoliyatida:**

- **stomatologik** kasalliklar boʻyicha reabilitatsiya chora tadbirlarini oʻtkazishga koʻrsatma va qarshi koʻrsatmalarni, muddatlarini toʻgʻri aniqlash;

- reabilitatsiya chora-tadbirlarini toʻliq hajmda amalga oshirish;

- bemorlar oʻrtasida reabilitatsiya oʻtkazishda zamonaviy usullardan foydalanish *qobiliyatlariga ega boʻlishi kerak.*

**Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:**

- ijtimoiy soha himoya organlari va rahm-shafqat xizmatlari bilan hamkorlikda tibbiy-ijtimoiy xizmat turlarini tashkillashtirish va xizmat koʻrsatish;

- aholi oʻrtasida jismoniy, tibbiy-ijtimoiy va psixologik nufuzni tiklash va rivojlantirish *qobiliyatlariga ega boʻlishi kerak.*

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- sogʻliqni saqlash tizimining birlamchi boʻgʻinidagi davolash-profilaktika muassasalarida ishni tashkillashtirish va boshqarish;

- tibbiyot sohasidagi boshqaruvni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga mos

tarzda takomillashtirish;

– aholi sogʻligi holatining asosiy koʻrsatkichlarini rejalashtirish, tahlil qilish va hisobot tayyorlash *qobiliyatlariga ega boʻlishi kerak.*

**Ilmiy - tadqiqot faoliyatida:**

– ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda axborotni himoyalashga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;

– internet tarmogʻida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi maʼlumotlarni maqsadga yoʻnalgan holda qidirish va topish;

– axborot xavfsizligiga oid ilmiy toʻplamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini oʻrganish;

– kasbiy faoliyat obʻekti yoʻnalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini oʻrganish;

– ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar oʻtkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

– ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

– tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;

– maʼlumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu boʻyicha ilmiy maʼlumotlarni tizimli tahlil qilish *qobiliyatlariga ega boʻlishi kerak.*

### **3. 5510400 – Stomatologiya bakalavriat taʼlim yoʻnalishi oʻquv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qoʻyiladigan umumiy talablar**

**5510400 – Stomatologiya** bakalavriat taʼlim yoʻnalishi oʻquv rejasi va fanlar dasturlari umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi bilan uzluksizlik va uzviylik taʼminlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini oʻzlashtirishini nazarda tutishi zarur:

Gumanitar va tabiiy-ilmiy;

klirikagacha boʻlgan fanlar;

klirik;

qoʻshimcha.

Kasb faoliyati koʻnikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari oʻtilishi nazarda tutilishi shart.

Oʻquv rejalar majburiy oʻquv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham oʻz ichiga olishi shart.

Bakalavriat taʼlim yoʻnalishi oʻquv rejasi va fanlar dasturlarini oʻzlashtirishda talabalarning oʻquv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar boʻyicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat taʼlim yoʻnalishi oʻquv rejasiga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

#### **3.1. Oʻquv reja fanlari bloklari mazmuniga qoʻyiladigan umumiy talablar**

##### ***Gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar bloki:***

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan oliy taʼlimning bakalavriat taʼlim yoʻnalishlari oʻquv rejalaridagi gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar blokiga qoʻyiladigan umumiy talablar asosida belgilanadi.

##### **Klinikagacha fanlar bloki:**

Anatomiyani oʻrganishning zamonaviy usullari (rentgenografiya, rentgenoskopiya, angiografiya, KT, MRT va boshqalar), shakl va vazifaning birligi. Xalqaro anatomik



terminologiya. Endokrin bezlarining funksional anatomiyasi. Yurak, arterial, venoz va limfa tomirlari, ularning tarmoqlanish qonuniyatlari, regionar anatomiyasining topografik va klinik xususiyatlari. Embrionda qon aylanishi. Bosh va orqa miya tuzilishi, taraqqiyoti, rivojlanish anomaliyalari. Og'iz bo'shlig'ining anatomiyasi. Til, tanglay, so'lak bezlari. Dental anatomiya asoslari. Yuz-jag' va bo'yin sohalari, taraqqiyoti va rivojlanish xususiyatlari.

Jarrohlik uskunalari. Jarrohlik aralashuvlari turlari, to'qimalarni ajratish, kesib olish va tikishning asosiy bosqichlari. Kalla sohasi to'qimalarini kesishning asosiy tamoyillari. Kalla-miya topografiyasi. Bolalar va kattalarda yuzning oldingi sohasi a'zo va to'qimalarining tuzilishi, shakli va o'zaro joylashishi. Og'iz tubi yiringli jarayonlarining tarqalish yo'llari. Yuz kontroforslari. Tishlovlar. Yuz yon sohasining klinik anatomiyasi: quloq oldi-chaynov va yuzning chuqur sohalari. Fassiya va kletchatka bo'shliqlari. Yiringli jarayonlarni tarqalish yo'llari. Chakka-pastki jag' bo'g'imida chiqishlar. Yuz-jag' sohasi jarrohlik aralashuvlarida introoral va ekstraoral usullarda mahalliy og'riqsizlantirish.

Hujayra va uning funksiyalarining ultrastruktur tavsifi. Odam embrional rivojlanishining xususiyatlari. Og'iz bo'shlig'ida regeneratsiya va apoptoz jarayonlarining namoyon bo'lishi. Epiteliy to'qimasi va bezlar. Sekretor sikl. Og'iz bo'shlig'i epiteliysining xususiyatlari, uning emal, so'lak bezlari, tilning ta'm bilish retseptorlari, murtaklar rivojlanishidagi ahamiyati. Qon, limfa va qon yaratilishi. O'zak hujayralar. Siyrak va zich biriktiruvchi to'qima. Skelet to'qimalar: tog'ay va suyak to'qimasi. Og'iz bo'shlig'idagi tolali va skelet biriktiruvchi to'qimaning xususiyatlari. Yuz-jag', og'iz bo'shlig'i organlari shakllanishi va tuzilishidagi ularning ahamiyati. Immun reaksiyalarining morfologik asoslari. Og'iz bo'shlig'i to'qima va organlarining implantatsiya va transplantatsiyasi jarayonlaridagi immun reaksiyalarining ahamiyati. Tishning qattiq va yumshoq to'qimalari rivojlanishi va morfo-funksional tavsifining molekulyar-genetik asoslari. Emal, dentin va sementning tuzilishi. Tish to'qimalarining regeneratsiyasi uchun allogen va autologik o'zak hujayralar. Emal, dentin va sementning regeneratsiyasi. Dentin-pulpa kompleksi va uning regeneratsiyasi imkoniyatlari. Tishning tayanch apparati. Periodont regeneratsiyasi. Milk, qattiq va yumshoq tanglay, lab, lunj, tilning morfofunktional tavsifi. Limfoepitelial yutqin xalqasi. Yuz-jag' taraqqiyotidagi anomaliya va rivojlanish nuqsonlariga yo'ldoshning ta'siri. Asab tizimi.

Biologiya fani va vazifalari. Zamonaviy biologiyaning nazariy asoslari. Hujayra organizmning struktur va funksional birligi. Irsiyat va o'zgaruvchanlikning asosiy qonunlari. Genetikaning fan sifatidagi zamonaviy holati. Kanserogenez. Odamning irsiy kasalliklari. Parazitizm biologik fenomen shaklida. Gelmintlarning odam organizmiga patologik ta'siri. Gelmintozlar diagnostikasining asosiy usullari.

Tibbiy kimyo faniga kirish. Biologik suyuqliklar xaqida tushuncha. Stomatologiya amaliyotidagi bufer eritmalar. Og'iz bo'shlig'ida kechadigan elektrokimyoviy jarayonlar. Elektroforez va uni stomatologiyada qo'llanilishi. Dispers sistemalar. So'lakni mitsellyar tuzulishi. So'lakni rNni doimiyligini ahamiyati. Organik kimyoga kirish.

Uglevodlar almashinuvi. Lipid almashinuvi, semizlik, aterosklerozning biokimyoviy asoslari. Aminokislotalar almashinuvi. Osteologiya va stomatologiyaning biokimyoviy mezonlari. So'lak sekretini shakllanishi, boshqarilishi. So'lak va og'iz suyuqligining organik va noorganik komponentlari. Og'iz bo'shlig'ining ximoya tizimi. Salivodiagnostika. Asosiy stomatologik kasalliklar rivojlanishining biokimyoviy mexanizmlari. Kimyoviy kanserogenez: Molekulyar biologiya asoslari. Yuz-jag' sohasi nuqsonlarini rivojlanishining molekulyar-genetik mexanizmlari.

Fiziologiya tabiatning asosi sifatida organizm va tashqi muhitning birligi. Sog'lom organizmning hujayralar, to'qimalar, tizim-a'zolarining umumiy qonuniyatlari. Organizm tizimlarining boshqarish mexanizmlari, adaptatsiya va gomeostaz. Organizm funksiyalarini tekshirish usullari va asosiy fiziologik ko'rsatkichlari. Og'iz bo'shlig'i funksiyalarini tekshirish usullari.

Kattalar va bolalar yuz-jagʻ sistemasi va yuz terisi hamda, yumshoq toʻqimasi kasalliklarining patologik anatomiyasi. Oʻtkir va surunkali yalligʻlanish morfologiyasi. Seroz, fibrinoz, yiringli, gemorragik, chirikli yalligʻlanish. Immunopatologik jarayonlarning morfologiyasi. Yuz yumshoq toʻqimasi, boʻyin va ogʻiz boʻshligʻining mezenximal oʻsmalari. Aʼzo va tuqimalar biopsiyasi, tibbiyot hujjatlarini tuzilishi va ularni toʻldirish tartib – qoidalari, tashxis tuzilishi va strukturasi.

Kasallikning sabablari, rivojlanish mexanizmlari va qonuniyatlari, yurak qon-tomir sistemasidagi oʻzgarishlar, nafas, oshqozon-ichak sistemalarida, buyrak, endokrin va nerv sistemalaridagi buzilishlarni umumiy qonuniyatlari va ularning stomatologik kasalliklar bilan bogʻliqligi.

Mikroorganizmlarning asosiy turlari, odam uchun patogen bakteriya, rikketsiya, mikoplazma, xlamidiya, viruslar, sodda jonivorlar va mikroskopik zamburugʻlarning taksonomiyasi, morfologik va biologik xususiyatlari, yuqumli kasalliklarga tashxis qoʻyish usullari. Immunitet, uning turlari. Organizmning nomaxsus va maxsus himoya omillari va ularning amaliyotdagi ahamiyati. Antigen va antitelolar. Odam tanasi biotoplari mikroflorasi, ogʻiz boʻshligʻi meʼyoriy mikroflorasi.

Retseptning tuzilishi, dori vositalariga retsept yozish qoidalari, turli dori shakllariga retsept yozish usullari. Umumiy farmakologiya (farmakokinetika, farmakodinamika), umumiy toksikologiya asoslari. Xususiy farmakologiya (preparatlar tasnifi, ularning organ va tizimlarga taʼsir qilish mexanizmi, qoʻllashga koʻrsatma va qarshi koʻrsatmalar, yoshga bogʻliq boʻlgan holda taʼsir etishning oʻziga xosligi, nojoʻya va zaxarli taʼsiri, asoratlari) dori vositalaridan zaharlanganda birinchi yordam berish.

Tibbiy terminologiyaga kirish. Retsepturada tuzlar. Kationlar va anionlar. Retsepturada qisqartmalar. Tibbiy terminlarni tarkib topishida anatomo-fiziologik, anatomo-gistologik klinik, farmatsevtik hamda anatomo-stomatologik, kliniko-stomatologik tizimni rivojlantirish. Tibbiy terminologiyaning asosiy stomatologiyaga oid leksikasi.

Aholi salomatligini oʻrganish koʻrsatkichlari: Statistik tadqiqotlarni tashkil etish. Demografiya, uning tibbiyot va stomatologiyadagi oʻrni. Demografik koʻrsatkichlarni hisoblash va tahlil etish usullari. Stomatologik kasallanishini oʻrganish usullari va manbaalari. Stomatologik poliklinika va kasalxona ish faoliyatini tahlil qilish. Yillik hisobot FN№3. Qishloq aholisiga QVPda stomatologik yordam tashkil qilish (tuzilishi, vazifasi).

Axborot tushunchasi: axborot toʻplash, uzatish, qayta ishlash va jangʻarish jarayonlarining umumiy tavsifi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining huquqiy asoslari. Axborot xavfsizligi.

Stomatologlar va boshqa kasb xodimlarining mehnat gigienasi va kasb kasalliklari. Stomatologiyada ionlashtiruvchi nur manbalaridan foydalanganda xodim va mijoz himoyasi. Stomatologik davolash-profilaktika muassasalariga boʻlgan gigienik talablar, stomatologik kasallanishlarni profilaktikasida turmush tarzi, tashqi muhit omillari.

Organizm, yuz-jagʻ sohasi aʼzo va toʻqimalarining faoliyati asosida yotuvchi umumiy fizikaviy va biofizikaviy qonuniyatlari, nurlanishi. Stomatologiyada rentgenoskopiya va rentgenografiya. Radioaktivlik. Stomatologik materiallarni tekshirishning radiatsion usullari. Dozimetriya.

### **Klinik fanlar bloki.**

Ichki aʼzolarning fizikal, funksional va qoʻshimcha tekshiruv usullarini interpritatsiya qilish va tashhislash. Sil qoʻzgʻatuvchisi va uning patomorfologiyasi va kasallikning patogenezini, hamda uning klinik belgilari, ogʻiz boʻshligʻi va periferik limfa tugunlari sili: kasallikning patogenezini, klinikasi, kechish xususiyatlari va profilaktikasi.

Pediatriya fani va uni stomatolog shifokorlar tayyorlashdagi oʻrni. Bolalik davrlari. Bolalar organizmining anatoma - fiziologik xususiyatlari. Bolalarda zotiljam kasalligidaqon,rentgen tekshiruvlar natijalarini tahlil qilish, birlamchi tashxis quyish, birinchi yordam koʻrsatish va mutaxassisga yoʻllanma berish.

Aseptika va antiseptika, qon ketishlar, shikastlanish, yiringli kasalliklarda laborator uskunaviy tashxislash, bemorlarni operatsiyaga tayyorlash, operatsiya turlari va operatsiyadan keyingi davrda bemorlarni davolash va parvarishlash, operatsiyadan keyingi davrda asoratlar va ularni oldini olish.

Ayol organizmining o'ziga xos xususiyatlari: hayz sikli, urug'lanish, homiladorlik, homiladorlikni kritik davrlari, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi paytda kechuvchi fiziologik va patologik jarayonlar. Reproduktiv salomatlik, zamonaviy kontratsepsiya usullari, ayol jinsiy a'zolari yallig'lanish va o'sma kasalliklari.

Teri kasalliklari xaqida umumiy tushuncha. Taxminiy tashxisni qo'yish xaqida umumiy tushunchani shakllantirish. Piodermiya, dermatozoonoz kasalliklar, dermatitlar, psoriasis, pufakli va virusli dermatozlar, OIV-infeksiya, OITS, zamburug'li kasalliklar, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar, og'iz bo'shligi rak oldi kasalliklari.

Farmakodinamika, farmakokinetika tushunchalari, dori vositalarning nojo'ya ta'sirlari va ularning o'zaro ta'siri, yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi dori vositalari, yuz-jag' soxasi og'rik sindromida qo'llaniluvchi dori vositalari, gemostazga ta'sir etuvchi dori vositalari, antibakterial dori vositalari.

Bosh miya nervlarini tekshirish usullari va ularning patologiyasida topik tashxislash asoslari. Harakat sohasi va harakat patologiyasida topik tashxislash asoslari. Neyrostomatologik sindromlar.

Burun bo'shlig'ining o'tkir va surunkali kasalliklari: burun chipqoni, o'tkir va surunkali rinit, ozena, burun poliplari, burun to'sig'ining qiyyshayishi, perforatsiyasi, gematomasi va xo'ppozi, burundan qon ketishlar. Tashqi va o'rta quloq o'tkir kasalliklari: quloq suprasi xondroperixondriti, saramasi, quloq chirki, tarqoq va chegaralangan tashqi otit (chipqon), otomikoz, ekzema, o'tkir o'rta otit va uning asoratlari, yevstaxeit, mastoidit, petrozit.

Orbita, qovoq, kon'yunktiva va ko'z yoshi a'zolari kasalliklariga xos belgilarni aniqlash va unda umumiy amaliyot stomatologi taktikasi. Organizmning umumiy kasalliklarida ko'z tubida kuzatiladigan o'zgarishlar va umumiy amaliyot stomatologi taktikasi. Ko'ruv a'zosi, og'iz bo'shlig'i va yuz-jag' sistemasining birgalikda zararlanish sindromlari. Ko'z ichi bosimi patologiyasi. Glaukoma sabablari, tasnifi, klinikasi, tashxislash, davolash usullari, profilaktikasi va unda umumiy amaliyot stomatologini o'rni.

Bemorning psixik faoliyati qonuniyatlari, me'yor va patologiya chegarasi, kasallik rivojlanishida va davolanish jarayonida shaxs sifatida shakllanishi, psixologik o'z-o'zini boshqarish, umumiy psixopatologiya va xususiy psixiatriya, tashxislash, davolash asoslari, reabilitatsiya va psixik buzilishlarni tavsiflash.

Stomatologik kasalliklarni davolashda xalq tibbiyoti usullari, ularga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Stomatologik kasalliklarni davolashda xalq tibbiyoti usullarining qo'llanishi. Ignarefleksoterapiyaga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.

Stomatologik kasalliklarni fizioterapevtik usulda davolash, ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar, fizioterapevtik apparatalar.

Hodisa va murda topilgan joyni ko'zdan kechirish. Vrach stomatologlar tomonida tibbiy yordam nuqsoniga yo'l qo'yilgan xolatlarda komission sud tibbiy ekspertiza.

Tez tibbiy yordam. Shikast. Travmatizm, klassifikatsiyasi. Yumshoq to'qimalarning lat yeyishi, ezilishi, uzilishi, paylarning cho'zilishi. bosh miya yopiq shikasti. ko'krak qafasi, qorin, qorin bo'shlig'i yopiq shikasti. etiologiyasi va klassifikatsiyasi. Pnevmotoraks, gemotoraks, gemoperitoneum, peritonit klinikasi, diagnostikasi va davolash usullari.

Rentgenologik tekshirish usullari. Ultrasonografiya. Fizik asoslari. Tibbiy radiologiya fani to'g'risida tushuncha berish. Nur tashxisotida tashxis qo'yish tamoyillari. Kompyuter tomografiya. Magnit-rezonans tomografiya. Angiografiya. Radionuklid usul. Stomatologiyada qo'llaniladigan rentgen usullar. Tish-jag' tizimi rivojlanishi.

Yuqumli kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, og'iz bo'shlig'i va yuz-jag' tizimi a'zolarida namoyon bo'lishi, klinika, qiyosiy tashxisi, davolash, dispanserizatsiya, profilaktika

chora tadbirlari. Stomatologiya xonasi (bo'limida) infeksiyon nazoratini tashkil qilish, sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini amalga oshirish.

Bolalarda o'ziga xos mahalliy va umumiy og'riqsizlantirish texnikasini o'tkazish xususiyatlari va turli yoshdagi bolalarda vaqtinchalik va doimiy tishlarni olish xususiyatlarini o'rgatish. Yuz-jag' va bo'yin sohalari yumshoq va suyak to'qimasi yallig'lanish kasalliklarining umumiy tavsifi, klinik ko'rinishi va rivojlanish dinamikasining o'sayotgan bola organizmiga anatomo-morfologik xususiyatlari ta'sirini o'rgatish. Bolalarda jag' osti va dahan osti sohalari abscess va flegmonalar: rivojlanishi, klinikasi, tashxisi va xirurgik davolash algoritmlari. Bolalarda chakka pastki jag' bo'g'imi artriti: etiopatogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxisi, jarrohlik davolash usullari.

Bolalar yuz-jag' sohasining jarohatlari: Sut va doimiy tishlarning chiqishi va sinishi. Kataksimon o'sig'ining sinishi. Pastki va yuqori jag' chiqishlari va sinishi: etiologiyasi, klinikasi, tashhisi va davolash. Jag'larning sinishida vaqtincha va doimiy immobilizatsiya usullari.

Sut tishlar kariesini davolashda sodir bo'ladigan asoratlari va ularni bartaraf qilish. Bolalarda o'tkir pulpitlarning o'ziga xos klinik xususiyatlari va tashxisi. Bolalarda kechadigan surunkali pulpitlarning o'ziga xos klinik xususiyatlari va tashhisi. Bolalarda kechadigan pulpitlarni davolashning o'ziga xos xususiyatlari. O'tkir periodontitlarning o'ziga xos klinik kechishi, qiyosiy tashxisi va davolash. Bolalarda surunkali periodontitlarning o'ziga xos klinik xususiyatlari va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlari.

Bolalarda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining (OBShQ) shakllanishi va fiziologik xususiyatlari. Bola ko'rigi va og'iz bo'shlig'i shilliq qavatiga xos kasalliklarning klinik belgilari. Klinik-laborator tekshirish usullari va natijalar, qiyosiy tashxislash, taxminiy tashxis qo'yish, kasallik tarixini to'ldirish. O'tkir gerpetik stomatitda bola ko'rigi va og'iz shilliq qavatining kasallikka xos klinik belgilari, o'tkir gerpetik stomatit turlari. Surunkali gerpetik stomatit klinik belgilari. Tuberkulez, zaxm bilan kasallangan bolalarda og'iz bo'shlig'ini tekshirish va o'ziga xos spetsifik belgilar. Bolalarda til kasalligini o'ziga xos belgilarni aniqlash. Qiyosiy taqqoslashni o'tkazishni o'rganish. Klinik laborator natijalarini interpretatsiya qilish, to'g'ri tashhis qo'yish, davolash rejasini tuzish, kasallik tarixini to'ldirish.

Dental implantatsiyaga kirish. Implantantlar tasnifi, implantantlar tayyorlashda qo'llaniladigan materiallar. Bemorlarni tekshirish usullari. Dental implantatsiyaga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Implantantlar tasnifi, implantantlar tayyorlashda qo'llaniladigan materiallar. Dental implantatsiya uchun bemorlarni tekshirish usullari. Dental implantatsiyaga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Dental implantatsiyani zamonaviy usullarda modellashtirish, xirurgik shablon tayyorlash. Ishlatiladigan osteoplastik materiallar klassifikatsiyasi, transplantatlar turlari, ishlatilishiga ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar. Dental implantatsiyaning ikkinchi bosqichi, protezlashga tayyorlash. Periimplantit, tashhishlash va davolash usullari.

Stomatologik bo'lim, xona (terapevtik, jarroh, parodontologik, fizioterapevtik va boshqalar), uni jihozlanishi. Hamshira va kichik hamshira majburiyatlari. Kariesni konservativ davolash usullari. Turli karies shakllarini operativ davolash usullari. Karies kavaklarini restavratsiya qilishning klinik tamoyillari. Karies kasalligini umumiy davolash. Karies profilaktikasi.

Endodontiya. Endodontiyada tekshirish va tashxislash usullari. Endodontiyada shoshilinch holat: odontogen og'riqni tashxislash.

Tish toj qismi nuqsonlari klinik ko'rinishlari va uni tashhishlash. Tish toj qismi nuqsonlarida o'zakli tishlar bilan davolash. Tishlarni sun'iy qoplama bilan protezlash. Tish toj qismi nuqsonlarda qistirma yordamida davolash. Tish qatori nuqsonlarini ko'priksimon protezlar bilan protezlash. Qisman olib qo'yiluvchi plastinkali protezlar tayyorlashning laboratoriya bosqichlari. Sun'iy tishlar turlari va ularni terish.

Stomatologiya poliklinikasida jarrohlik xonasi ishini tashkil qilish. Jarrohlik stomatologiyasida bemorlarni tekshirish. Stomatologiyada mahalliy og'riqsizlantirish usullari

va ularning turlari. Anafilaktik shok, klinik belgilari va yurak-o'pka reanimatsiyasi va tez tibbiy yordam.

Doimiy tishlarni olishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Retensiya, yarimretensiya, distopiya. Tishlar chiqishi davridagi kasalliklari: perikoronorit, retromolyar abscess. Xirurgik davolash usullari va asoratlari.

Noodontogen yallig'lanish kasalliklari: limfangit va limfadenit, saramas, chipqon va xo'ppoz, tekshirish usullari, hospitalizatsiyaga ko'rsatmalar.

Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati (OBShQ) tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari. OBShQ kasalliklar tasnifi. OBShQ shikastlangan bemorni tekshirish usullari: immunoflyuoressensiya, sitologiya. OBShQni patologik o'zgarishlari. Tilning mustaqil kasalliklari va nuqsonlari: klinikasi, tashxislash va davolash. Xeylitlar: klinikasi, tashxisi va davolash. OBShQva lab qizil hoshiyasining obligat va fakultativ saraton oldi kasalliklari. Xavfli omillari. Karies va uning asoratlarini tashxislashda, parodont va og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarini davolash maqsadida fizik omillarning qo'llanilishi.

Tish-jag' tizimining anatomiyasi va fiziologiyasi. Ortopedik stomatologiya klinikasida bemorlarni asosiy tekshirish usullari. Bemorlarni tekshirish va ma'lumot to'plash xususiyatlari (anamnez). Patologik tish milk cho'ntagining chuqurligini aniqlash. Okklyudatorlar. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Qolip va qolip oluvchi qoshiqlar. Qolip oluvchi xom ashyolar tasnifi va ularning fizik kimyoviy xususiyatlari. Modellar va ularning turlari. Ishchi va yordamchi modellar tayyorlash. Tishlarni toj qismini mumdan va gipsdan shakllantirish. Patologik va fiziologik tishlov turlarini farqlash. Tish, tish qatorlari va tishlov nuqsonlarini tashxislash. Bolalarda tish protezlarini o'ziga xosligi. Bolalar uchun olib qo'yiluvchi va ko'priksimon (Irina – Markosyan, Shamsiev) protezlarni tayyorlashni o'ziga xos xususiyatlari.

Ortodontiyada apparatlar yordamida davolash usullari. Ortodontik apparatlarni ta'sir qilish mexanizmi, mahkamlanishi va joylashtirish bo'yicha tasniflar. Mexanik ta'sir qiluvchi (Engel, Derixsvayler) ortodontik apparatlar. Funktsional yo'naltiruvchi (Kats, Vymin, Shvars) va ta'sir etuvchi (Frenkel, Shonxer) ortodontik apparatlar. Aralash ta'sir etuvchi (Bryukel, Gulyaeva, Xurgina, Klampt, Andrezen-Goypl) ortodontik apparatlar. Ortodontik davolashda qo'yiladigan xato va asoratlar, ularning oldini olish va bartaraf qilish. Tish-jag' tizimi anomaliyalari va deformatsiyalarining qaytalanishi, ularning sabablari, oldini olish usullari.

Bolalarda parodont kasalliklari tasnifining tahlili va tavsifi. Bolalar parodont kasalliklarining etiologiyasi va patogenezini. Parodont kasalliklarida bolani tekshirish va parodont kasalligiga xos klinik belgilarini aniqlash. Klinik-laboratoriya tekshirish usuli analiz natijalari, qiyosiy tashxislash va boshlangich tashhis. Bolalarda parodont kasalliklarini o'ziga xos xususiyatlari, etiologiyasi, kechishi, patogenezini.

Bolalarda pubertat davridagi parodont kasalliklarini tekshirish va klinik-laboratoriya belgilarini interpretatsiya qilish, qiyosiy tashxislash va boshlangich tashxisni aniqlash, davolash rejasini tuzish va klinik kasallik tarixini tuzish. Parodont kasalliklarida maxalliy va umumiy profilaktika o'tkazishni zamonaviy usullari. Parodont kasalliklari, og'iz bo'shlig'i laxtakli operatsiyalari, ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalari. Yumshoq va suyak to'qimalari plastikasi va transplantatsiyasi. Parodont kasalliklarini jarroxlik usulida davolashdan so'ng parvarishlash.

Parodontologiya. Terminologiya. Parodont epidemiologiyasi, tasnifi. Og'iz bo'shlig'i ekologiyasi. Kelib chiqish sabablari va rivojlanishi. Parodont to'qimasini patologiyasi bor bemorlarni asosiy va qo'shimcha tekshirish usullari. Parodont kasalliklarida kasallik tarixini yozish. Gingivit, parodontit, parodontoz.

Mutaxassislikka kirish. Ergonomika. Stomatologik xona jihozlanish. Stomatologik qurilmalar. Stomatologiyada qo'llaniladigan dastalar va dastaklar turlari. Ularni o'rnatish koidalari. Stomatologik asboblarni tasnifi. Ko'rish va plombani qorish va qo'yishda ishlatiladigan asboblari. Tishlarni charxlashda ishlatiladigan rotatsion asboblari. Borlar. Plombaga pardoz berishda

foydalaniladigan asbob va ashyolar. Fantomlarda karioz bo'shliqlarini charxlash va plombalash. Oldingi va orqa tishlar restavratsiyasi.

Bolalarda og'iz bo'shlig'ining birlamchi profilaktik ko'rigini o'tkazish. Dispanserizatsiya guruhlarida kariesni tarqalishi, jadallik, davolashga ko'rsatmalarini aniqlash. Og'iz bo'shlig'i gigienik holatini baholash. Parodont ko'rsatkichlarini aniqlash. Tish tozalash usullari. Bog'cha va maktablarda sanitar – targ'ibot ishlari. Bolalarga og'iz bo'shlig'i gigienasini o'rgatish.

Tish tojining patologik yemirilishi, etiopatogenezi, tashxisi, davolash. Yuzning pastki qismi tarqoq patologik yemirilishi hisobiga pasayishi va pasaymagan holati, davolash mezonlari. Fotokompozitlar va vinir-qoplamalar yordamida nokaries kasalligini davolash. Qisman tishsizlikda tish qatorlari deformatsiyasi klinikasi, tashxisi va davolash. Qisman tishsizlikda tishlovni buzilishi. Prognatik tishlovda old tishlari frontal sohaga tarqalishi klinikasi, tashxisi, davolash. Qisman tishsizlikda tish tojining patologik yemirilish oqibatida tishlovning buzilishi: tashxisi, qiyosiy tashxisi, davolash asosi.

Yuz-jag' ortopediyasi. Qisman va to'liq tishsizlikda implantatlar yordamida tish protezlash. Okklyuziogramma. Ortopedik stomatologiyada estetik protezlash asoslari. Chakka pastki jag' bo'g'imi kasallikari: tasnifi, tekshirish usullari, davolash asoslari. Funksiogrammani tahlili.

Yuz-jag' sohasi o'qli va o'qsiz jarohatlarni davolash asoslari. Yumshoq va qattiq tanglayni nuqsonlarini ortopedik apparatlari bilan davolash.

Katta yoshdagilar tish jag' anomaliyalari. Yuz-jag' tizimini nuqsonlari, ularni mahsus davolash. Tishlarning shakli, joylashishi va sonidagi nuqsoni, ularni davolash asosi.

Tish qatorlari nuqsonlaridagi deformatsiyalar. Chakka pastki jag' bo'g'imi kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan ortopedik apparat va protez turlari. Chakka pastki jag' bo'g'imi kasalliklarini kombinatsiyalashgan konstruksiyalar bilan ortopedik davolash. Onkologik ehtiyotkorlik.

Turli kistalar tabiati va klinik namoyon bo'lishini baxolash. Turli kistalarni o'ziga xos davolash tushunchalarini shakllantirish. Eitelial kistalar: odontogen va noodontogen turlari, ularni aniqlash, etiologiyasi, kasallik anamnezi, klinik namoyon bo'lishi, maxsus tekshirish usullari, gistologik belgilari. Tug'ma kistalar, yuz va bo'yin oqma yo'llari: klinikasi, tashxisi va davolash.

Yuz-jag' sohasi xavfli o'smalari bor bemorlarni tekshirish usullari, tashxislash. Yuz terisi o'sma oldi kasalliklari. Terini xavfli o'smalari: klinikasi, tashxislash va davolash. Lab qizil hoshiyasi va og'iz bo'shlig'i shilliq qavati o'sma oldi kasalligi. Lab qizil hoshiyasi xavfli eitelial o'smalari: klinikasi, tashxislash va davolash tamoyillari. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati xavfli eitelial o'smalari: til, lunj, tanglay va og'iz bo'shlig'i tubi. Jag'larni xavfli eitelial va noepitelial o'smalari: klinikasi, tashxislash, qiyosiy tashxislash va xirurgik davolash tamoyillari. Adenokarsinoma: tashxislash va davolash tamoyillari.

Tiklov operatsiyalarini rejalashtirish: rejalashtirishning asosiy tamoyillari, yuz sohasidagi plastik operatsiyalarga ko'rsatmalar va ularni o'tkazishdagi xususiyatlari. Mahalliy to'qimalar bilan plastika qilish: mahalliy plastik operatsiyalar turlari. Limberg uchrashuvchi uchburchakli laxtaklar bilan plastikasi. To'qimalarni erkin ko'chirib o'tkazish: yuz-jag' sohasiga to'qimalarni erkin ko'chirib o'tkazishga ko'rsatmalar va ularni o'tkazish tamoyillari. Filatov bandi bilan plastika qilish. Mikroxirurgiya usullarini qo'llab yuz jag' soxasi nuqson va shakl buzilishlarini plastikasi. Yuz mimik mushaklari paralichi.

Chakka pastki jag' bo'g'imi ankilozi va kontrakturasi: klinikasi, qiyosiy tashxislash, xirurgik davolash tamoyillari. Suyak plastikasi. Transplantat turlari. Xirurgik davolash usullari tamoyillari. Yuqori va pastki jag' deformatsiyalari: makro yoki prognatiyani bartaraf qilish. Osteogeneznining hujayra va to'qima manbalari haqida zamonaviy tushunchalar.

Erkin mikrotomirli laxtaklar bilan autoosteoplastika. Biokeramika va uning suyak plastikasida qo'llanilishi. Polimer kompozitlar implantatsiyasi. Distraksion osteogenez. To'qima injeneriyasida zamonaviy biotexnologiya va uning suyak-plastik jarrohligida qo'llanilishi.

O'zak hujayralardan foydalanish. Yuz-jag' sohasi yumshoq va suyak to'qimalari plastika operatsiyalarini o'tkazgan bemorlarni parvarishlash.

Chakka pastki jag' bo'g'imi disfunktsiya sindromi. Yuz-jag' nevrologik buzilishlari va og'riqlar. Yuz sohasi og'riqlari. Og'riq komponentlari va mexanizmi. Sezuvchi nervlar shikastlanishini tashhislash usullari. Yuz-jag' sohasi nevrilari. Bell paralichi. Nerv shikastlanishi bor bemorlarni jarrohlik davolash usullari. Shikastlangan nervni qayta tiklash. YuJS da sistematik nevropatiya. Markaziy asab tizimining buzilishi.

Yuz-jag' sohasi odontogen yallig'lanish jarayonlari klassifikatsiyasi. Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi va davolash. Yuz-jag' sohasi abscesslari va flegmonalari. Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, davolash. Bemorni tekshirish. Oldini olish. Fassial sohalari klassifikatsiyasi. Yuqori jag' bilan bog'langan yallig'lanish kasalliklari. Pastki jag' bilan bog'langan yallig'lanish kasalliklari. So'lak bezlari yallig'lanish kasalliklari. So'lak tosh kasalligi. Etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash.

Yuz-jag' sohasidagi jarohatlar. Statistika. Yuz-jag' sohasi jarohatlarining klassifikatsiyasi. Travmatologik yordam tamoyillari. Yuz yumshoq to'qimasi jarohatlarining turlari. Jarohatni tekshirish usullari. Yuz yumshoq to'qimasi jarohatini asosiy davolash usullari. Politravma.

Jag' suyaklari sinishida vaqtinchalik va doimiy immobilizatsiya usullari. Jag' suyaklari sinishini operativ davolash usullari.

Shifokor - stomatologning ekstremal holatlarda vazifalari. Yuz yumshoq to'qimalari va suklarini o'q otar jarohatlari. Etiologiyasi, klassifikatsiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash.

Yuz-jag' jag' sohasi jarohatlarining asoratlari. Yuz-jag' jarohatlarida maxsus reanimatsiya usullari.

Ixtisoslik fanlarining dasturlarini ishlab chiqishda kadrlar buyurtmachilarining talablarini e'tiborga oladi.

### **Tanlov fanlari:**

*Ta'lim yo'nalishi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda tanlov fanlarining tarkibi va ularning mazmuniga qo'yilgan talablar OTM Kengashi tomonidan belgilanadi.*

### **Qo'shimcha fanlar bloki:**

ta'lim yo'nalishi talabalarining klinikagacha va klinik fanlar bo'yicha qo'shimcha ravishda chuqur bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishi;

mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlashi hamda ta'lim xizmatlari sohalari rivojini jadallashtirishi;

harbiy dala terapiyasi, harbiy dala jarrohligi, harbiy gigiena, harbiy epidemiologiya, fuqaro muhofazasi va fuqaro muhofazasining tibbiyot xizmati bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan choralarni amalda qo'llashni ta'minlashi;

tabiiy, texnogen va ekologik favqulodda vaziyatda jabrlangan aholiga tibbiy yordam ko'rsatish va o'choqni bartaraf etish uchun FMTX kuch va vositalarini, zaruriy mol-mulk bilan ta'minotini bilishi va foydalanishi uchun zamin yaratishi;

ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar va mehnat bozori kon'yukturasi tez o'zgarayotgan sharoitda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalar va fan dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo'lishini ta'minlanishi;

kasbiy faoliyat strategiyasi va taktikasini to'g'ri tanlay olish, kasbiy nuqtai nazarning barqarorligini ta'minlashi lozim.

### **3.2. 5510400 – Stomatologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi**

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan

holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soatgacha qilib belgilanishi mumkin.

O'qishning normativ muddati besh yil bo'lgani holda o'quv jarayoni 256 hafta davom etishi zarur.

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

nazariy va amaliy ta'lim -	63 - 70%;
attestatsiyalar -	8 - 10 %;
ta'til -	12 - 16 %;
malakaviy amaliyot -	6 - 12 %.

Nazariy ta'lim hajmi "Sog'liqni saqlash va ijtimoiy taminot" bilim sohasiga muvofiq fanlar bloklari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar -	7-8 %
klirikagacha bo'lgan fanlar -	20-25%;
klirik fanlar -	55-65%;
tanlov fanlar (regional komponent) -	3-7%;
qo'shimcha fanlar -	3-7%.

O'quv yilida ta'til davrining umumiy hajmi 7- 9 hafta qilib belgilanadi.

## **Bibliografik ma'lumotlar**

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Oliy ta'lim, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavrning asosiy ta'lim dasturi (bakalavr dasturi), o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, tibbiy bilim, tibbiy yo'nalishlar, sog'liqni saqlash tizimi, klinika, laboratoriya, amaliy ko'nikmalar, kasallik, davolash muassasalari, profilaktika, davolash usullari, diagnostika, etiologiya, patogenez, morfologiya, gistologiya, rentgenologiya, terapiya.

Stomatologiya, vrach umumiy stomatolog, asboblar va ashyolar, terapevtiya, ortopediya, ortodontiya, bolalar, jarrohlik, tish, milk, ildiz, protezlash, yuz-jag', onkologiya, yallig'lanish, kasalliklar, parodont, karies, plomba, borlar, pulpit, periodontit, karash, og'iz bo'shlig'i shilliq qavati, tishlov, fantom-modellar, yoy, ko'priksimon tish protezi, parodont, dental implantologiya, okklyudator, sun'iy tish, artikulyator, qolip, chakka pastki jag' bo'g'imi.



Ишлаб чиқувчилар, келишилган муассасалар ҳамда кадрлар истеъмолчилари

**ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН:**

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги хузуридаги  
Республика тиббий таълимни ривожлантириш маркази



Директор  **Н.Р. Яגיעва**

201\_ йил « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

Тошкент давлат стоматология институти



Ректор  **Ж.А.Ризаев**

201\_ йил « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

**КЕЛИШИЛГАН:**

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги


Вазирнинг биринчи ўринбосари  **Б.Қ.Юсупов**

201\_ йил « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

М.Ў.

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги  
Фан ва тиббий таълим Бош бошқармаси



Бошқарма бошлиғи  **Ў.С. Исмаилов**

201\_ йил « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

Ўзбекистон Республикаси  
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги хузуридаги  
Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълимини  
Ривожлантириш маркази



Директор  **Б.Х.Рахимов**

201\_ йил « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

М.Ў.